

O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA XORIJIY SARMOYANI JALB ETISHDA SAMARALI MOLIVAVIY USULLAR

Abdirahmonova Sarvinoz Mirzoxid qizi

O‘zbekiston Respublikasi Bank – Moliya Akademiyasi

Magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining xorijiy investitsiyalarni jalb qilish siyosati hamda bu jarayonda qo‘llanilayotgan samarali moliyaviy usullar atroflicha tahlil qilinadi. Jahon iqtisodiyotida raqobat kuchayib borayotgan bir davrda mamlakat iqtisodiy o‘rinishining asosiy drayverlaridan biri sifatida xorijiy sarmoya oqimini ko‘paytirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan, maqolada soliq va bojxona imtiyozlari, davlat tomonidan kafolatlangan investitsiya himoyasi, erkin iqtisodiy zonalar faoliyati, IPO va obligatsiyalar orqali moliyalashtirish kabi zamonaviy moliyaviy mexanizmlarning afzalliklari yoritiladi. Bundan tashqari, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan kredit liniyalari, FinTech yechimlari, raqamli moliyaviy infratuzilma va investitsiya fondlarining iqtisodiyotga ta’siri ham tahlil qilinadi. Mazkur maqola xorijiy sarmoyadorlar uchun O‘zbekistonda yaratilayotgan qulay shart-sharoitlarni ochib beradi, shuningdek, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha amaliy tavsiyalarni ilgari suradi.*

Kalit so‘zlar: *Xorijiy investitsiyalar, O‘zbekiston iqtisodiyoti, moliyaviy usullar, sarmoyaviy muhit, soliq imtiyozlari, davlat kafolatlari, kapital bozori, xalqaro moliyalashtirish, FinTech, raqamli moliya, erkin iqtisodiy zonalar, investitsiya siyosati, iqtisodiy islohotlar.*

Аннотация: *В статье дается подробный анализ политики Республики Узбекистан по привлечению иностранных инвестиций и эффективных финансовых методов, используемых в этом процессе. В эпоху растущей конкуренции в мировой экономике увеличение притока иностранных инвестиций имеет неотложное значение как один из основных факторов экономического роста страны. В этой связи в статье освещаются преимущества современных финансовых механизмов, таких как налоговые и таможенные льготы, гарантированная государством защита инвестиций,*

функционирование свободных экономических зон, финансирование через IPO и облигации. Кроме того, будет проанализировано влияние на экономику кредитных линий, финтех-решений, цифровой финансовой инфраструктуры и инвестиционных фондов, реализуемых совместно с международными финансовыми институтами. В статье раскрываются благоприятные условия, создаваемые в Узбекистане для иностранных инвесторов, а также представлены имеющиеся проблемы и практические рекомендации по их устранению.

Ключевые слова: *Иностранные инвестиции, экономика Узбекистана, финансовые методы, инвестиционная среда, налоговые льготы, государственные гарантии, рынок капитала, международное финансирование, FinTech, цифровые финансы, свободные экономические зоны, инвестиционная политика, экономические реформы.*

Abstract: *This article provides a comprehensive analysis of the policy of the Republic of Uzbekistan to attract foreign investment and the effective financial methods used in this process. In an era of increasing competition in the global economy, increasing the inflow of foreign investment as one of the main drivers of the country's economic growth is of urgent importance. In this regard, the article highlights the advantages of modern financial mechanisms such as tax and customs privileges, state-guaranteed investment protection, the operation of free economic zones, financing through IPOs and bonds. In addition, the impact of credit lines implemented in cooperation with international financial institutions, FinTech solutions, digital financial infrastructure and investment funds on the economy is also analyzed. This article reveals the favorable conditions being created in Uzbekistan for foreign investors, as well as puts forward existing problems and practical recommendations for their elimination.*

Keywords: *Foreign investments, economy of Uzbekistan, financial methods, investment environment, tax incentives, state guarantees, capital market, international financing, FinTech, digital finance, free economic zones, investment policy, economic reforms.*

Kirish. *Zamonaviy global iqtisodiy munosabatlar sharoitida har bir davlat o‘zining iqtisodiy salohiyatini oshirish, milliy ishlab chiqarishni modernizatsiya*

qilish va raqobatbardoshligini kuchaytirish maqsadida xorijiy investitsiyalarni jalb etishga alohida e’tibor qaratmoqda. Xorijiy sarmoya nafaqat qo‘shimcha moliyaviy resurs manbai, balki yangi texnologiyalar, ilg‘or boshqaruv tajribasi va xalqaro savdo aloqalariga chiqish imkonini ham beradi. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun xorijiy investitsiyalar iqtisodiy o‘rishning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi ham oxirgi yillarda ochiq va liberallashtgan iqtisodiy siyosat yuritishga o‘tgan bo‘lib, xorijiy investorlar uchun qulay investitsiya muhitini shakllantirishni ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilab olgan. 2017-yildan boshlab amalga oshirilayotgan tub islohotlar, erkin iqtisodiy zonalarining tashkil etilishi, soliq va bojxona tizimidagi qulayliklar, shuningdek, sarmoyalarni huquqiy himoya qilish bo‘yicha qabul qilingan normativ hujjatlar xorijiy kapital oqimini sezilarli darajada oshirmoqda. Shu bilan birga, xorijiy investitsiyalarni samarali jalb etishda moliyaviy vositalarning roli nihoyatda muhimdir. “Xorijiy investitsiyalar – bu faqat moliyaviy resurs emas, balki yangi texnologiyalar, boshqaruv tajribasi va xalqaro bozorga kirish imkoniyatidir. Shu boisdan ularni jalb qilish strategik ahamiyatga ega.” Bugungi kunda global moliyaviy tizimning jadal rivojlanishi, raqamli texnologiyalar asosida yaratilgan yangi moliyaviy mexanizmlar va xalqaro kapital bozorlarining ochiqqligi O‘zbekiston uchun ham keng imkoniyatlar yaratmoqda. Shu sababli, xorijiy sarmoyani jalb etishda zamonaviy va samarali moliyaviy usullardan foydalanish masalasi alohida tahlil va e’tiborni talab etadi [1]. Mazkur maqolada O‘zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy sarmoyani jalb qilishda qo‘llanilayotgan samarali moliyaviy vositalar, ularning afzalliklari va amaliyotdagi qo‘llanilish xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, mavjud muammolar va ularni hal etish yo‘llari ham ko‘rib chiqiladi.

Adabiyotlar tahlili. Xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, asosan, investitsion muhit, moliyaviy rag‘batlantirish choralari, sarmoya xavfini kamaytirish mexanizmlari hamda sarmoyadorlar ishonchini oshirish vositalarini qamrab oladi. Xususan, iqtisodiy barqarorlik, qonunchilikdagi kafolatlar va soliq imtiyozlari xorijiy sarmoyani jalb etishda muhim omillar sifatida ko‘rsatiladi. Mahkamova Z.M. tomonidan xorijiy sarmoyaning milliy iqtisodiyotga ta’siri haqida olib borilgan tahlillarda, ayniqsa, erkin iqtisodiy zonalar va ularning investitsion jozibadorligi haqida muhim fikrlar ilgari surilgan. Uning tadqiqotida davlat tomonidan yaratilgan qulay huquqiy va iqtisodiy shart-sharoitlar xorijiy investorlar

uchun muhim turtki bo‘lishi ta’kidlangan. “Kapital bozori vositalari – IPO, obligatsiyalar va investitsiya fondlari – iqtisodiyotni uzoq muddatli moliyalashtirish uchun eng samarali mexanizmlardan biridir”[2]. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Markaziy bank hamda Davlat statistika qo‘mitasi tomonidan e‘lon qilingan rasmiy statistik ma‘lumotlar, mamlakatga kirib kelayotgan xorijiy investitsiyalar hajmi, ularning yo‘nalishlari hamda tarmoqlar kesimidagi taqsimoti to‘g‘risida muhim faktik asoslarni beradi. Xalqaro moliyaviy tashkilotlar – Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg‘armasi (IMF), Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (EBRD) tomonidan chop etilgan hisobotlarda esa investitsion muhitni baholashda moliyaviy infratuzilmaning rivojlanishi, biznes yuritish qulayligi va moliyaviy barqarorlikka alohida e‘tibor qaratilgan. “Xorijiy investorlar uchun ishonch muhimroqdir, bu esa barqaror iqtisodiy siyosat, qonunchilikdagi kafolatlar va shaffof muhit orqali ta‘minlanadi.” Moliyaviy mexanizmlar – IPO, korporativ obligatsiyalar, investitsiya fondlari, raqamli moliyaviy xizmatlar – haqida O‘zbekiston bank tizimi va fond bozori bo‘yicha so‘nggi tahliliy materiallar asosida ilmiy xulosalar chiqarilgan. Bu borada, Bobojonov A. va boshqa mualliflar tomonidan yozilgan maqolalarda mahalliy kapital bozorining rivojlanish sur‘atlari xorijiy investitsiyalarni jalb etishda qanday rol o‘ynashi aniq misollar orqali tahlil qilingan. Raqamli moliyaviy xizmatlar xorijiy investorlar uchun vaqt va xarajatlarni sezilarli darajada kamaytiradi, bu esa mamlakat investitsion jozibadorligini oshiradi.” Umuman olganda, mavjud adabiyotlar xorijiy sarmoya uchun qulay muhit yaratishning huquqiy, iqtisodiy va moliyaviy jihatlarini yoritadi. Biroq, ba’zi tadqiqotlarda zamonaviy raqamli moliyaviy vositalarning investitsiya jalb qilishdagi o‘rni yetarli darajada yoritilmagan, bu esa ushbu maqola orqali to‘ldirilmoqda [3,4].

Tadqiqot muhokamasi. O‘zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy sarmoyani jalb qilish bo‘yicha so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida investitsiya muhiti tubdan o‘zgarib bormoqda. Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, sarmoyadorlar uchun yaratilayotgan moliyaviy qulayliklar va zamonaviy vositalar ularning ishonchini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Biroq, mavjud mexanizmlarning samaradorligi har doim ham teng darajada bo‘lib qolmayapti. Shu nuqtai nazardan, ularni kompleks tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Avvalo, soliq imtiyozlari xorijiy investorlar uchun eng asosiy rag‘batlantiruvchi vositalardan biri sanaladi.

Erkin iqtisodiy zonalarda bir necha yilga qadar beriladigan soliq va bojxona preferensiyalari, investorlar uchun xarajatlarni kamaytirish va daromadni maksimal darajada oshirish imkonini beradi. Biroq, bu imtiyozlar barcha soha va hududlarda bir xilda qo‘llanilmasligi, ayrim holatlarda murakkab byurokratik tartib-taomillar bilan bog‘liq ekani amaliyotda to‘siq bo‘layotganini ko‘rsatadi. Shuningdek, davlat tomonidan beriladigan kafolatlar va sarmoya shartnomalarining qonuniy himoyasi xorijiy kapitalni jalb qilishda muhim rol o‘ynaydi. “Investitsiyalarni jalb qilishda soliq imtiyozlari muhim omil bo‘lsa-da, ularni boshqa institutsional islohotlar bilan uyg‘unlashtirish zarur.” Investorlarga qonunchilikdagi barqarorlik kafolatlanishi uzoq muddatli sarmoya kiritish bo‘yicha qarorlarni osonlashtiradi. Shu bilan birga, bu kafolatlar ijrosi bilan bog‘liq amaliy mexanizmlar yanada takomillashtirilishga muhtoj [5]. Kapital bozorining rivojlanishi – ayniqsa IPO (birlamchi ommaviy taklif), korporativ obligatsiyalar va investitsiya fondlari orqali moliyalashtirish — xorijiy sarmoyani jalb qilishda katta imkoniyatlar ochmoqda. Biroq, O‘zbekiston fond bozorining hali to‘liq shakllanmaganligi, likvidlik pastligi va investorlar uchun to‘liq shaffoflikning yetishmasligi muammo bo‘lib qolmoqda. Shu sababli, bu sohani institutsional jihatdan rivojlantirish, fond bozori ishtirokchilarining savodxonligini oshirish dolzarb vazifadir. Raqamli moliyaviy texnologiyalar (FinTech) ham sarmoya jalb qilishda innovatsion vosita sifatida e’tirof etiladi. Elektron to‘lov tizimlari, blokcheyn asosidagi smart-kontraktlar, moliyaviy xizmatlarning onlayn ko‘rinishda taqdim etilishi investorlar uchun qulay va shaffof muhit yaratadi. Biroq bu texnologiyalarni to‘liq joriy etishda axborot xavfsizligi, texnik infratuzilmaning yetarliligi va yuridik asoslar bilan bog‘liq muammolar mavjud. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, O‘zbekistonda xorijiy investitsiyalar oqimini jadallashtirish uchun faqatgina moliyaviy usullar emas, balki institutlararo muvofiqlik, huquqiy kafolatlar, inson kapitali va infratuzilmaning yaxshilanishi ham muhim rol o‘ynaydi. Ya’ni moliyaviy mexanizmlar samaradorligi ularni qo‘llab-quvvatlovchi iqtisodiy va institutsional omillar bilan chambarchas bog‘liq. Shunday qilib, xorijiy sarmoyani jalb etish strategiyasida moliyaviy usullarning o‘rni muhim bo‘lsa-da, ularni kompleks yondashuv asosida qo‘llash, davlat siyosati, biznes muhiti va texnologik rivojlanish bilan uyg‘unlashtirish zarur.

Xulosa. O‘zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy sarmoyalarni jalb etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, mamlakatda barqaror iqtisodiy

o‘shirish, yangi ish o‘rinlari yaratish, texnologik yangilanish va eksport salohiyatini oshirish kabi muhim maqsadlarga erishishda muhim rol o‘ynamoqda. Ushbu tadqiqotda xorijiy sarmoyani jalb etishda qo‘llanilayotgan asosiy moliyaviy usullar – soliq imtiyozlari, davlat kafolatlari, kapital bozori vositalari, xalqaro moliyalashtirish mexanizmlari va raqamli moliyaviy texnologiyalarning amaliyotdagi samaradorligi atroflicha o‘rganildi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, moliyaviy mexanizmlarning muvaffaqiyatli qo‘llanilishi, avvalo, davlat tomonidan yaratilayotgan institutsional muhit va ishonch darajasiga bog‘liq. Xususan, sarmoyadorlar uchun huquqiy barqarorlik, shaffoflik, soddalashtirilgan tartib-taomillar va zamonaviy raqamli infratuzilmalar xorijiy investitsiyalar oqimini oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, mavjud mexanizmlarni takomillashtirish, moliyaviy bozorlarni chuqurlashtirish va innovatsion vositalarni joriy etish orqali investitsiya muhitini yanada yaxshilash imkoniyatlari mavjud. Shunday qilib, O‘zbekistonda xorijiy sarmoyalarni samarali jalb etish uchun moliyaviy vositalarni kompleks tarzda, islohotlar bilan uyg‘unlashtirgan holda qo‘llash, davlat va xususiy sektor o‘rtasida samarali hamkorlikni kuchaytirish hamda xalqaro tajribaga asoslangan innovatsion yondashuvlarni faol tatbiq etish lozim. Bu esa iqtisodiyotning barqaror va diversifikatsiyalashgan rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahkamova Z.M. *O‘zbekiston iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalarning o‘rni va rivojlanish istiqbollari*. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021. – 96 b.
2. Islomov B.S. *Investitsion jarayonlarni moliyalashtirishning institutsional asoslari*. – Toshkent: Fan, 2019. – 128 b.
3. Bobojonov A., Xaydarov S. *Kapital bozorining rivojlanishi va uning xorijiy investitsiyalarni jalb etishdagi ahamiyati*. – “Iqtisodiyot va moliya” jurnali, 2022, №4, 19–27-betlar.
4. Karimov Sh.S. *Raqamli moliya va investitsion faoliyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik*. – “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy-amaliy jurnali, 2023, №2, 30–36-betlar.
5. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi rasmiy veb-sayti – <https://www.invest.gov.uz> (murojaat qilingan sana: 2025-y. 20-aprel).

6. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. *Moliyaviy barqarorlik hisobotlari*, 2020–2024-yillar. – <https://www.cbu.uz> (murojaat qilingan sana: 2025-y. 20-aprel).
7. Jahon banki. *Doing Business 2020: Uzbekistan Country Profile*. – Washington D.C.: World Bank Group, 2020. – 39 p.
8. International Monetary Fund (IMF). *Republic of Uzbekistan: 2023 Article IV Consultation Report*. – IMF Country Reports No. 23/142, 2023. – <https://www.imf.org>
9. European Bank for Reconstruction and Development (EBRD). *Transition Report 2023–24: Investing in Resilience*. – London: EBRD Publications, 2024. – <https://www.ebrd.com>